

QAMASHI TUMANI AYRIM MAHALLALARI DIALEKTAL
LEKSIKASINING AREAL TAHLILI

Normurodova Fayoza Boymurod qizi

Termiz davlat universiteti magistranti

fayozanormurodova88@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola Qashqadaryo viloyati Qamashi tumanining Qizilqishloq, Changak, Dovud, Elobod va Boburtepa mahallalari nutqidagi leksik-semantik va fonetik farqlanishlarni tahlil qilishga bag'ishlangan. Jami 40 ta leksema 4 ta asosiy semantik guruh (maishiy, kiyim-kechak, oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi) bo'yicha o'rganildi. Tadqiqot shevalararo o'tish zonalarini, konservativ va innovatsion nuqtalarni belgilashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Qashqadaryo shevalari, izoglossa, leksik differentsiatsiya, fonetik o'zgarish, qarluq-qipchoq aralashmasi.

Аннотация: Данная статья посвящена анализу лексико-семантических и фонетических различий в речи жителей махаллей Кизилкишлак, Чангак, Давуд, Элобод и Бобуртепа Камашинского района Кашкадарьинской области. В общей сложности изучено 40 лексем по 4 основным семантическим группам (бытовая лексика, одежда, продукты питания и сельское хозяйство). Исследование служит для определения зон междиалектного перехода, а также консервативных и инновационных точек.

Ключевые слова: Кашкадарьинские диалекты, изоглосса, лексическая дифференциация, фонетические изменения, карлукско-кипчакское смешение.

Abstract: This article is devoted to the analysis of lexico-semantic and phonetic differences in the speech of residents of five mahallas (neighborhoods) in the Kamashi district of the Kashkadarya region: Kizilkishlok, Changak, Davud, Elobod, and Boburtepa. A total of 40 lexemes were studied across 4 main semantic groups (household items, clothing, food, and agriculture). The research serves to identify areas of inter-dialectal transition, as well as conservative and innovative linguistic points.

Keywords: Kashkadarya dialects, isogloss, lexical differentiation, phonetic change, Karluk-Kipchak mixture.

Dialektologiya tilning hududiy o'zgarishlarni o'rganuvchi asosiy soha bo'lib, u tilning ijtimoy-tarixiy rivojlanish qonuniyatlarini ochib beradi. Zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda til elementarining geografik tarqalishini o'rganuvchi areal lingvistika sohasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu sohada shevalarning hudud jihatdan tarqalish zonalarini belgilash hamda ularni xaritalashtirish imkoniyati yuzaga keladi. Shevalarni ma'lum bir vaqt oralig'idan so'ng yana o'rganish tabiiy holdir. ¹

Qashqadaryo viloyati aholisi tilida asosan qipchoq shevasining ustuvor ekanligini guvohi bo'lamiz, ammo bu holat qolgan sheva turlarni bu hudud uchun begona degan xulosani bermaydi. Ushbu hududning Qamashi tumanidagi ba'zi mahallalari doirasida individual so'rovnomaga o'tkazilganda, bu hududda yashovchi aholi tilida bir-birga yaqin joylashgan hududlar misolida bir nechta tafovutlarga duch keldik. Qamashi tumanidagi 5 ta mahalla (Qizilqishloq, Changak, Dovud, Elobod, Boburtepa) shevalarining leksik tarkibini areal atlas usulida kompleks o'rganish, tilning hududiy tarqalish qonuniyatlarini aniqlashga yordam beradi. Lingvistik atlas uchun asosan material keng ko'lamdagi savollar majmuasi asosida to'plansa, dialektologik atlas materiali uchun ma'lum dialektal xususiyatlarni modellashtiruvchi programma asos bo'ladi.²

Areal lingvistikada izoglossa atamasi asosan mos hodisalarni u yoki bu a'zosi, bo'lagi tarqalgan eng chet nuqtalarni tutashtiruvchi atlas kartasidagi chiziq³ ma'nosida qo'llaniladi. Mahallalardagi shevalar orqali turli semantik qatlamlarda fonetik va leksik izoglossalarni aniqlash va ularning hududiy konfiguratsiyasini belgilash orqali, bu mahallalar o'rtasidagi dialektal chegaralarni ilmiy asoslashda tayanch vazifasini bajarib beradi. Bu tajriba o'z o'rnida o'zbek dialektologiyasida raqamli geografik axborot tizimlarini (GIS) qo'llashda amaliy tajriba bo'ladi.

¹ O'zbek tilining dialektal korpusini tuzish amaliyoti. Xolova M. Termiz, 2023. 6b

² Lingvistik geografiya nima? Shermatov A. Toshkent: "Fan" nashriyoti, 1981. 4b

³ Lingvistik geografiya nima? Shermatov A. Toshkent: "Fan" nashriyoti, 1981. 8b

Qamashi tumanining 5ta mahallasida (Qizilqishloq, Changak, Boburtepa, Elobod, Dovud) mahalalarida 4 kategorik guruhlar (maishiy, kiyim-kechak, oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi) asosida so‘rovnomalar o‘tkazildi hamda ularning natijalarni yig‘ib olinib statik tahlil qilindi. Ushbu guruhda eng aniq farqlanish fonetik xarakterga ega bo‘ldi. Adabiy tildagi "oftoba" (suv idishi) so‘zining mahalliy variantlari hudud bo‘ylab markazdan chetga tomon kuchli fonetik divergatsiya (farqlanish) zanjirini hosil qiladi:


Oftoba → aptava → optava → ottova → oftova

shaklida farqlanish zanjirini hosil qilganini ko‘rish mumkin. Qizilqishloq mahallasida

4. Qishloq xo‘jaligi

Nº	Qizilqishloq	Changak	Dovud	Elobod	Boburtepa
1	aptava	optava	ottova	oftova	oftoba
2	kola	kolacha	baklashka	baklajka	baklashka
3	sopi	sopi	sopi	sopi	sopi
4	balinchak	belanchak	belanchak	belanchak	belanchak
5	dap	doyira	doyra	doyira	doyira
6	do‘ng qirag‘	jonalik	do‘ng	tepalik	–
7	jona	jo‘na	tapa	qir	yona
8	satil	paqir	poqir	chelak	satil
9	oshtovoq	oshlati	oshtovoq	tarilka	tarilka
10	Qirgich	kappir	kappirt	kappir	kappir

Fonetik va Leksik farqlar




o – a (lablanmagan unli) va f - p (undoshlar almashinuvi) kuchli arxaik xususiyatlardan dalolat beradi. “Satil” va “chelak” (idish nomi) nomlarida leksik izoglossa kuzatildi,

bu rus tili o‘zlashmalarining har bir davrlarda turli yo‘llar orqali kirib kelganidan darak beradi.

Kiyim-kechak nomlari eng yuqori darajadagi leksik farqlanishni ko‘rsatdi, bu madaniy va sotsial (ijtimoiy) ta’sirlarning kuchliligini o‘zida aks ettiradi. Qizilqishloq va Elobod mahallalarida “guticha” (kalta chopon) kabi an’anaviy etno-leksik terminlar saqlanib qolgan. Changak va Boburtepada esa jumpir, shapka kabi so‘zlar ustuvorlik qiladi. Bu leksik o‘zlashtirish izoglossasi Qamashi tumanining markaziy va yo‘l usti qismlariga zamonaviy (asosan ruscha-baynalmilal) leksikaning kirib kelish tezligini ko‘rsatadi.

Taom nomlari va o‘simlik nomlari esa etnolingvistik chegaralarni belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. “O‘rik” mevasining “g‘o‘lin” (Qizilqishloq, Dovud mahallalarida) variantlari kuzatildi. Taom nomlari: Moma oshi, To‘ppa osh, Chirog‘ osh kabi variantlar yopiq leksik izoglossalarni hosil qilib, har bir mahalla o‘ziga xos taomlanish an’anasini saqlab qolganini ko‘rsatadi. Changak mahallasida go‘ja, sho‘xla kabi o‘ziga xos shakllar ko‘pligi uning nisbatan yopiq mikro-areal ekanligini bildiradi. Bu guruh nisbatan barqaror bo‘lsa-da, fonetik farqlar mavjud: y – j almashinuvi: “Yo‘ng‘ichka” so‘zining Dovud mahallasida “jo‘nguchqa” shaklida uchratilishi qipchoq lahjasiga xos “j-lovchi” xususiyatining bu hududga saqlanib kelayotganidan dalolat beradi. Ambur, tishlovich, ombur kabi so‘zlar mehnat qurollarining nomlanishida leksik varaintdoshlikni yuzaga keltiradi.



Ushbu tadqiqotlar natijalarini tizimlashtirish maqsadida Qamashi tumani shevalarining asosiy farqlanish yoʻnalishlari va areal xususiyatlari yuqoridagi diagrammada umumlashtirilgan. Qamashi tumani mikro-areal shevalarining zonali tasnifi va fonetik divergatsiya yoʻnalishi (oftoba misolida).

Diagramma tahlili shuni koʻrsatadiki, Qizilqishloq va Elobod mahallalari arxaik fonetik (masalan, Oftoba / aptava) va anʻanaviy leksik xususiyatlarni saqlab qolgan “Konservativ yadro” ni tashkil etadi. Aksincha, Changak va Boburtepa mahallalari leksik oʻzlashtirishlar (masalan, jumpir, shapka) ustuvor boʻlgan “Innovatsion oʻtish zonasi” hisoblanadi. Dovud mahallasi esa leksik jihatdan aralash xususiyatlarni namoyon etadi.

Eng muhim leksik izoglossa kiyim-kechak va oziq-ovqat terminologiyasidan oʻtgan boʻlib, bu asosan Qizilqishloq, Elobodni Changak, Boburtepadan ajratadi. Fonetik izoglossa esa asosan shimoliy (togʻga yaqin) hududlarni janubiy (tekislikka yaqin) hududlardan ajratadi. Qamashi tumani mikro-areal dialektologik tadqiqoti shuni koʻrsatdiki, hudud bir xil sheva maydoni emas, balki bir-biridan farqlanuvchi zonalardan iborat. Bundan kelib chiqib xulosa qilishimiz mumkinki, Qamashi tumani 5ta mahallasi misolida leksik tavofutlar bir-biriga yaqin joylashgan mahallalar doirasida ham katta farqlar borligini koʻrsatib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oʻzbek dialektologiyasi *Ashirboyev, S.* – Toshkent: Nodirabegim, 2021.
2. Areal lingvistika *Yoʻldosheva, N., Kurbanazarova, N.* – Termiz: Surxon-nashr, 2024.
3. Oʻzbek dialektologiyasi *Toʻychiboyev, B., Hasanov, B.* – Toshkent: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.
4. Oʻzbek tilining dialektal korpusini tuzish amaliyoti *Xolova, M.* – Termiz, 2023.
5. Lingvistik geografiya nima? *Shermatov, A.* – Toshkent: Fan, 1981.
6. Oʻzbek xalq shevalari lugʻati *Shoabdurahmonov, Sh. va boshqalar.* – Toshkent: Fan, 1971.